

DAVLAT XIZMATI VA BOSHQARUV TIZIMINING TARIXIY BOSQICHLARI.

Pirmatova Nargiza Nazim qizi

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
magistratura bosqichi talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada milliy davlatchiligimiz tarixida davlat xizmati va boshqaruv tizimining shakllanishi va rivojlanishi, davlat xizmatiga kadrlar tanlashga oid milliy an'analar va qadriyatlarning shakllanish va rivojlanishining asosiy evolyutsion bosqichlari ilmiy jihatdan taxlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *davlat xizmati, davlat xizmatchisi, davr, ta'limot, model, tarix, taktik, prezident, qonun, hokimiyat*

ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ И АДМИНИСТРАТИВНОЙ СИСТЕМЫ.

Аннотация: *В данной статье научно анализируются основные эволюционные этапы становления и развития государственной службы и системы управления, становления и развития национальных традиций и ценностей, связанных с подбором кадров на государственную службу в истории нашей национальной государственности.*

Ключевые слова: *государственная служба, государственный служащий, период, доктрина, модель, история, тактика, президент, закон, власть*

HISTORICAL STAGES OF DEVELOPMENT OF CIVIL SERVICE AND ADMINISTRATIVE SYSTEM.

Abstract: *This article scientifically analyzes the main evolutionary stages of the formation and development of the civil service and management system, the formation and development of national traditions and values associated with the selection of personnel for the civil service in the history of our national statehood.*

Keywords: *civil service, civil servant, period, doctrine, model, history, tactics, president, law, power*

Kirish

Har bir davlat o'z hududida amalga oshiradigan siyosatiga muvofiq ravishda davlat xizmati kadrlari siyosatini olib boradi. Shu nuqtai nazardan, kadrlar bilan bog'liq barcha jarayon va munosabatlar davlat siyosatining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda uni amalda shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, davlatning kadrlar siyosati amalda davlat va jamiyatni taraqqiyot yoki tanazzulga olib keladi.

Mamlakatimiz davlat mustaqilligini qo‘lga kiritganidan keyin esa bu borada har qanday davlat, hattoki dunyoning eng rivojlangan davlatlari ham havas qiladigan darajadagi ishlar amalga oshirildi. Xususan, mustaqillikka qadar O‘zbekistonning davlat va jamiyat boshqaruvida amalda bo‘lib kelgan mustabid, totalitar, yakka mafkura hukmronligiga asoslangan partiya nomenklaturasi bilan bog‘liq rahbar kadrlar tayyorlash tizimi “...kishilar tafakkurini o‘zgartirish, eski qoliplar, eng avvalo, boqimandalik kayfiyatlaridan qutulish zarur. Jamiyatga yangicha fikrlay olishga qodir kishilar kerak. Birinchi navbatda, o‘z irodamizga tayanib, qobiliyatimiz va ishbilarmonligimizga suyanib, o‘z kuch va imkoniyatlarimizni to‘g‘ri taqsimlab yangi hayot qurishimiz, haqiqiy kelajak uchun kurashishimiz lozim” ligidan kelib chiqib tubdan o‘zgartirildi.

Davlat xizmati va boshqaruvi tizimi asoslarining shakllanishini tarixiy nuqtai nazaridan tahlil etganimizda, Vatanimiz bu sohaga doir nazariy qarashlar va xalqchil amaliy tajribalar dastlabki shakllangan va rivojlangan zaminlardan biri ekanligiga amin bo‘lamiz. Shuni aytish kerakki, davlat xizmati va boshqaruvi to‘g‘risidagi tizimli ilmiy-nazariy qarashlar umuminsoniy tamaddun rivojining ancha keyingi davriga tegishlidir. Lekin boshqaruv tizimi va uni muvaffaqiyatli tashkil etish, boshqarishni mahorat bilan amalga oshirish bilan bog‘liq amaliy tajribalar insoniyat jamiyatining amaliy siyosiy jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, juda qadimiy davrlarga borib taqaladi va mazkur qadimiy tarixni kuzatar ekanmiz boshqaruv to‘g‘risidagi qarashlar dastlab nazariy manbalardan ko‘ra amaliy siyosiy jarayonlarda oydinroq ko‘zga tashlanishiga guvoh bo‘lamiz.

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tarixini davlat va jamiyat boshqaruvi, davlat xizmati an‘analari, mansablarga tanlash va tayinlash kabilar nuqtai nazaridan davrlashtirish murakkab masala hisoblanadi. Shunga qaramay davrimiz olimlari tomonidan bunga urinishlar bor. Jumladan, siyosatshunos olim F.Ravshanov mavzuga aloqador ravishda davlat xizmatiga kadrlar tanlashga oid milliy an‘analar va qadriyatlarning shakllanish va rivojlanishining asosiy evolyutsion bosqichlarini shartli ravishda quyidagicha davrlashtirgan:

- birinchi davr – qadim zamonlardan VIII asrga qadar bo‘lgan davr – davlat boshqaruvi, boshqaruv mahorati va boshqaruv tizimiga rahbarlar va mansabdorlarni tanlashning amaliy jihatdan shakllanishi davri;

- ikkinchi davr – IX - XVI asrlar - davlat boshqaruvi, boshqaruv tizimi, rahbarlik mahorati va rahbarlikka tanlash milliy tizimining rivojlanishi, yuksalishi va bu sohaga doir ilmiy nazariyalar hamda ta’limotlarning yuzaga kelishi davri;

- uchinchi davr – XVII asrdan XX asrning birinchi choragigacha – davlat boshqaruvi, boshqaruv mahorati va rahbarlikka doir milliy tizim amaliy va ilmiy an‘analarining turg‘unlik va tanazzulga yuz tutishi davri;

- to‘rtinchi davr – XX asr – 1925-1990 yillar - davlat boshqaruvi milliy an‘analarining barham topishi hamda boshqaruv va rahbarlikning kommunistik totalitar usullariga o‘tilishi vositasida milliy tizimning butunlay inkor etilishi davri;

- beshinchi davr – XX asr oxiri XXI asr – milliy mustaqillik sharoitida hamda davlatchilikning “O‘zbek modeli” asosida boshqaruv tizimining qayta shakllantirilishi, milliy ildizlarining tiklanishi va jahon tajribalari bilan boyitilishi davri.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Boshqaruv qaysi davrda paydo bo‘lgan bo‘lmasin, albatta bir maqsadga ko‘ra – yuzaga kelgan ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish, uni amalga oshirish vositasida ham muammoni tugatish, ham muvaffaqiyatga erishishni ko‘zda tutgani uchun jamiyat tomonidan hayrixohlik bilan qabul qilindi. Hayot qo‘yayotgan muammolarga javob berish bir butun taktik, strategik va tizimlashgan boshqaruvga oid bir qator tamoyillar, uslublar, yaxlit an‘anaviy qarashlar, munosabatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Milliy davlatchiligimiz tarixida davlat xizmati va boshqaruv tizimining shakllanishi va rivojlanishi, shunga doir ko‘plab asarlar mavjudligiga qaramasdan ular hozirgi davr nuqtai nazaridan chuqur tahlil etilgan yo‘q. Shuningdek, bu sohadagi milliy merosni hozirgi huquqiy davlat qurish islohotlarida keng foydalanish uchun ham maxsus obyekt sifatida o‘rganishga zaruriyat paydo bo‘ladi.

Vatan mustaqilligi va farovonligi uchun olib borilgan kurashlar ayni vaqtda amaliy-hayotiy talablar va majburiyatlar boshqaruv tizimi va boshqaruv mahoratida diqqat qilinishi lozim bo‘lgan muhim xususiyatlarning o‘ziga xos tizimini shakllantirib bordi. Shunday uzoq, davomiy rivojlanishlar natijasida davlat xizmati va boshqaruvga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy, amaliy yo‘nalishlar vujudga keldi.

Bu uch yo‘nalish ham o‘z doirasida yetarli manbalarga ega. Ayni vaqtda aytish kerakki, bu yo‘nalishlar o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Davlat xizmati va boshqaruvi taraqqiyotining ilmiy-nazariy yo‘nalishiga mamlakatimiz va mintaqamizda yashab ijod qilgan shoirlar, olimlar, diniy ulamolar va boshqa mutafakkirlar asos solganlar. Ilmiy nazariy yo‘nalish boshqa yo‘nalishlardan farqli o‘laroq, boshqaruv xarakterini, jamiyat va rahbar tabiati orasidagi munosabatlarni, rahbarning jamiyatda tutgan o‘rni, shuningdek, jamiyat, rahbar va davlat xizmatiga qo‘yiladigan ijtimoiy prinsiplarni ko‘proq darajada tadqiq etadi. Bu yo‘nalishda jamiyatning tabiati, ehtiyojlari, nazoratni talab etadigan jihatlari, rahbarning boshqaruv qobiliyati, yetakchilik xususiyati, xususan, ma‘naviy falsafiy kamolotining, bilimining qay darajadaligi yoki qay darajada bo‘lishi kerakligini tadqiq qilish ustun turadi. Bu tamoyilda masala jamiyat qanday bo‘lishi, qanday odam rahbar bo‘lishi kerak tarzida emas, jamiyat qanday boshqarilishi, rahbar qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak tarzida qo‘yiladi. Muammoning bu tarzda qo‘yilishi unga nisbatan bildirilgan munosabatlarning xilma-xil bo‘lishiga olib kelgan. Ushbu yo‘nalish tahlil yoki tadqiqotlar tarzida rivojlanib borib, oxir-oqibatda yurtimiz tarixida rahbarshunoslik bilan bog‘liq bir qator manbalarining yuzaga kelishiga zamin hozirladi.

Muhokama va natijalar

Boshqaruv to‘g‘risidagi ta’limotlarning ilmiy-amaliy yo‘nalishi tariximizda rahbarlar, ijodkorlar hamda dindorlarning yaqin munosabatlari, ya’ni davlat boshqaruvi ishlarida

ijodkorlar va din peshvolari ishtirokining odatiy holga aylanishi bilan yuzaga kelgan yoʻnalishdir. Maʼlumki, XX asr boshlariga qadar mamlakatimiz tarixida boshqaruv monarxiyaga asoslangan edi. Shunga koʻra davlat boshqaruv apparatidagi lavozimlar bosh rahbar va vazirlar buyruqlariga koʻra taqsimlangan, mansabdor shaxslarni tayinlash ham ular ixtiyorida boʻlgan. Garchi rahbarlik lavozimi shaxsga ana shu ixtiyorli shaxslar tomonidan taqdim etilgan boʻlsada, shaxsning tayyorgarligiga ham eʼtibor qaratilar edi. Yuqori lavozimdagi rahbar shaxslar oʻz farzandlarini donishmand, ijodkor va oʻtkir bilimli kishilar qoʻliga topshirib, tarbiya qilganlar. Boʻlgʻusi rahbar saroyda boshqaruvning amaliy jarayonlarini koʻrib borish bilan birga oʻziga berkitilgan otaliq yoki ustozdan ilmiy-nazariy tarbiya ham olib borgan. Tariximizda shunday qaydlar mavjudki, baʼzan bu tarbiyachilar rahbar nomidan davlatni boshqargan yoki rahbarga teng mavqega ega boʻlganlar. Shunga koʻra ushbu yoʻnalish ilm ahlining boshqaruv ishlarida bevosita ishtiroki bilan ham izohlanadi.

Boshqaruv toʻgʻrisidagi taʼlimotlarning amaliy yoʻnalishi butun jahon xalqlari tarixiy davlatchiligida eng keng tarqalgan tamoyil boʻlib, jumladan, xalqimiz tarixida ham u koʻp asrlar davomida qoʻllanilgan. Amaliy yoʻnalishga boshqaruv va rahbarshunoslikning tartibsiz yoʻnalishi sifatida qaramaslik kerak. Tarixda yashagan har bir davlatning (koʻp hollarda yozma tarzda qayd etilmagan boʻlsada) shaxslarning amaliy faoliyatini belgilab beruvchi oʻziga xos amaliy rahbarshunosligi mavjud boʻlgan. Amaliy faoliyatini baholagan holda rahbar tanlash baʼzi tarixiy davlatlarda qonunlashtirilgan yoki qatʼiy nizom sifatida belgilab qoʻyilgan va bu qoidalar anʼana sifatida barchaga birday maʼlum boʻlgan.

Xulosa va takliflar

Mamlakatda milliy boshqaruv tizimining shakllanishida mahalliy davlat hokimiyati tizimida hokimlik institutini joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur qonunning ijrosini taʼminlash jarayonida mamlakat Oliy Kengashi qarorlari asosida ijroiya hokimiyatini mustahkamlash munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining viloyatlari, tumanlari va shaharlarida vakillik hokimiyatiga hamda ijroiya-boshqaruv hokimiyatiga boshchilik qiladigan hokimlik lavozimlari taʼsis etildi.

Mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning poydevori va asoslari shakllantirilgan davrdan, yaʼni XXI asrning boshidan yangi bir rivojlanish bosqichi boshlanib, bu davrda islohotlarni yanada chuqurlashtirishning “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyiliga ustuvorlik berila boshlandi. Tabiiyki, mamlakatda davlat xizmati kadrlari siyosatida yangi talablar ham shakllandi. Bu davrga kelib kadrlarning tadbirkor va tashabbuskorligi sifati bilan birga ularning intellektual salohiyatining nechogʻlik rivojlanganligiga ham eʼtibor qaratildi. Shu bilan birga, kadrlarning fidoyiligi, vatanparvarligi, xalq va davlat manfaatlarini oʻz manfaatlaridan ustun qoʻya olishi, ularning maʼnaviy yetukligi kabi sifatlariga qoʻyiladigan talablarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga asosiy urgʻu berila boshlandi. Shuningdek, milliy manfaatlardan kelib chiqib, ularning ongida milliy mustaqillik mafkurasi gʻoyalari nechogʻlik shakllanganligi mezonlarini yaratish va ularni doimiy eʼtiborda tutish ham

boshqaruv tizimining diqqat markazidagi ishlardan biriga aylandi. Bu davrga kelib kadrlarning ma'naviy sifatlarini belgilab beradigan mezonlar paydo bo'ldi.

Milliy davlatchiligimiz tarixida davlat xizmati va boshqaruv mahoratiga doir bir qator asarlar yaratilgan bo'lib, biz bugungi kunda ularni masalaga bevosita dahldor asarlar, ayni vaqtda ilmiy-nazariy manbalar sifatida qayd etishimiz mumkin. Bu asarlarda mavzuga oid masalalar turli tarzda yoritiladi. Ularning ba'zilarida davlat va jamiyat boshqaruvi davlat va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyoti jarayonlari bilan bog'liq ravishda tahlil etilgan bo'lsa, boshqalarida davlat xizmatiga doir tamoyillarning o'zi rivojlantirilib, bu sohada o'ziga xos dasturiy qarashlar ifoda etiladi. Shuning uchun ham davlat xizmati va boshqaruv asoslarini o'rganishda bu sohadagi milliy merosga doir manbalarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi bevosita manbalar bo'lib, unda davlat xizmati va boshqaruv masalalari imkon qadar yaxlitroq tarzda ifodalangan. Ikkinchisi bilvosita manbalardir. Ular turli shaxslar va turli asarlar tomonidan qayd etilgan davlat xizmati va boshqaruvga doir fikr mulohazalarni o'z ichiga olib, o'z mohiyatiga ko'ra bu sohaga oid nazariy qarashlarni ifodalasada, ko'proq rahbar shaxs xarakterining ayrim fazilatlar va xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar beradi. Bu kabi manbalar sirasiga ko'proq badiiy asarlar, tarix solnomalarini kiritish mumkin. Lekin ularning ba'zilarini badiiy uslubda yozilganligiga qaramay, davlat va jamiyat boshqaruvi, mansabdorlar tanlash va tayinlashning nazariy masalalariga bevosita daxldor tarixiy manbalar qatoriga qo'shish mumkin.

Mamlakatimizda qaysi bo'g'indagi kadrlar zaxirasini shakllantirish va tayyorlash bo'lmasin, zaxirani sohibqiron Amir Temur bobomiz aytganidek, "ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi..." lar orasidan shakllantirishni maqsad qilib olish kerak. Ana shunda kadrlar zaxirasini shakllantirish va tayyorlash davlat siyosati kutilgan natijani beradi. Chunki, "Biz oldimizga qanday vazifani qo'ymaylik, qanday muammoni yechish zaruriyati tug'ilmasin, gap oxir oqibat, bari-bir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi, o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tarbiyalashmizga bog'liq".

ADABIYOTLAR

1. Ravshanov F.R. O'zbekiston Respublikasida rahbar kadrlar tanlash asoslari. Doktorlik dissertatsiyasi. –Toshkent, 2009. -358 b.
2. Behzodjon Qurolovich Malikov O'ZBEKISTONDA DAVLAT XIZMATINI TARTIBGA SOLISHDAGI MUAMMOLAR // Academic research in educational sciences. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-davlat-hizmatini-tartibga-solishdagi-muammolar> (data obrasheniya: 20.12.2022).
3. Malikov, B. Q. (2021). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING DAVLAT XIZMATLARIGA DOIR SIYOSIY QARASHLARI. Scientific progress, 1(4), 207-212.

4. Malikov, B. Q., & Ikromov, D. R. O'. (2022). SHARQ TA'LIMOTIDA QONUN USTUVORLIGI G'OYALARI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 483-487.
5. Yu. A. Ergasheva., I. Kh. Jabborova. From the history of construction of water facilities in Kashkadarya oasis. In Volume 27, ISSN: 2795-7659, of Eurasian Journal of History, Geography and Economics (EJHGE) December 2023. P.1-6.
6. Axmedov, B. (2023). YEVIROPA CHORVACHILIGIDA QORAKO'L-CHILIK. Journal of Social Sciences, 4 (01).
7. Axmedov, B. (2021). Qorako'Ichilik sohasini ilmiy tadqiqotlarda o'rganilishining ahamiyati. Journal of Social Sciences, 2 (01).
8. Rustamov, R.R. (2018). ATTRIBUTIVE CHANGES IN THE INFORMATION SPACE SYSTEM IN THE CONTEXT OF GEOPOLITICAL COMPETITION. Theoretical & Applied Science, (3), 170-173.